



## ENSURING SOCIAL AND POLITICAL ACTIVITY OF WOMEN IN MODERN STATE ADMINISTRATION AS AN IMPORTANT PRINCIPLE OF INCLUSIVE SOCIETY

*Feruzha Rakhmonovna Davronova*

senior lecturer, Ph.D

Uzbekistan State University of World Languages

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: [feruza\\_davronova\\_82@mail.ru](mailto:feruza_davronova_82@mail.ru)

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** public administration, politics, equality, gender, strategy, gender culture, inclusion, political participation, political activity, political culture.

**Received:** 29.07.24

**Accepted:** 31.07.24

**Published:** 02.08.24

**Abstract:** This article examines the question of how to increase citizen participation in government and political culture in modern modern society. In particular, the issue of increasing the inclusiveness of political participation, especially ensuring the social and political activity of women, is described. It is based on the fact that improving the political culture of women, who make up half of the population, and ensuring their rights are an important element of the gender equality strategy in our country. The article focuses on the need to form a gender culture and increase the political literacy of women.

## ZAMONAVIY DAVLAT BOSHQARUVIDA AYOLLAR IJTIMOYIY-SIYOSIY FAOLLIGINI TAʼMINLASH INKLYUZIV JAMIYATNING MUHIM TAMOYILI SIFATIDA

*Feruzha Raxmonovna Davronova*

katta o'qituvchisi, PhD

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O'zbekiston

E-mail: [feruza\\_davronova\\_82@mail.ru](mailto:feruza_davronova_82@mail.ru)

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit soʻzlar:** davlat boshqaruvi, siyosat, tenglik, gender, strategiya, gender madaniyati, inklyuzivlik, siyosiy ishtirok, siyosiy faollik, siyosiy madaniyat.

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada bugungi kun zamonaviy jamiyatida fuqarolarning davlat boshqaruvida ishtirokini va siyosiy madaniyatini oshirish borasida fikr yuritiladi. Jumladan, siyosiy ishtirokda inklyuzivlikni oshirish, bunda, ayniqsa, ayollarning ijtimoiy-

siyosiy faolligini ta'minlash masalasi bayon etiladi. Aholining yarmini tashkil etadigan xotin-qizlarning siyosiy madaniyatini oshirish, ularning haq-huquqlarini ta'minlash mamlakatimizda gender tengligi strategiyasining muhim elementi ekanligi asoslanadi. Maqolada gender madaniyati shakllantirish va xotin-qizlarning siyosiy savodxonligini oshirish zaruriyatiga e'tibor qaratiladi.

---

## ОБЕСПЕЧЕНИЕ СОЦИАЛЬНОЙ И ПОЛИТИЧЕСКОЙ АКТИВНОСТИ ЖЕНЩИН В СОВРЕМЕННОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УПРАВЛЕНИИ КАК ВАЖНЫЙ ПРИНЦИП ИНКЛЮЗИВНОГО ОБЩЕСТВА

*Феруза Рахмоновна Давронова*

*старший преподаватель, PhD*

*Узбекский государственный университет мировых языков*

*Ташкент, Узбекистан*

*E-mail: [feruza\\_davronova\\_82@mail.ru](mailto:feruza_davronova_82@mail.ru)*

---

### О СТАТЬЕ

**Ключевые слова:** государственное управление, политика, равенство, гендер, стратегия, гендерная культура, инклюзивность, политическое участие, политическая активность, политическая культура.

**Аннотация:** В данной статье рассматривается вопрос о том, как повысить участие граждан в государственном управлении и политическую культуру в современном обществе. В частности, описан вопрос повышения инклюзивности политического участия, особенно обеспечения социальной и политической активности женщин. Оно основано на том, что повышение политической культуры женщин, составляющих половину населения, и обеспечение их прав являются важным элементом стратегии гендерного равенства в нашей стране. В статье акцентируется внимание на необходимости формирования гендерной культуры и повышения политической грамотности женщин.

---

### KIRISH

Jahon miqyosida shiddat bilan kechayotgan ijtimoiy-siyosiy o'zgarishlar hamda global fuqarolik jamiyati tendensiyalarining kuchayishi davlat va jamiyat hayotining turli sohalarida ayollarning imkoniyatlari, xususan, siyosiy jarayonlardagi faolligiga konstruktiv munosabatni kuchaytirish, gender integratsiyasiga qaratilgan strategik islohotlarni takomillashtirish ehtiyojini oshirmoqda. Bu esa, avvalo, ayollar siyosiy faolligi va ijtimoiy tenglik tamoyillarini ta'minlashga xizmat qiluvchi institusional mexanizm va dasturlarning uzoq muddatga mo'ljallangan amaliyoti,

davlat boshqaruvi tizimi inklyuzivligini oshirishdagi gender paritetini muvofiqlashtirish va mazkur siyosatning ustuvor yo'nalishlari bo'yicha harakatlanish dasturlari mukammalligini oshirishda dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Motiv, ehtiyoj va manfaatdorlik hissi mutanosibliqi aql-idroki teran, jamiyatda o'z o'rniga ega har qanday insonni tinimsiz harakat va faollik sari maqsadli odimlashga undaydi. Inson o'z maqsadiga erishish uchun harakat qilar ekan, kutilgan natijaga erishish uchun izlanadi, intiladi. Sarflangan energiya, amalga oshirilgan harakatlar kutilgan natijaga olib kelganda, kishi o'z ishidan faxr hissini tuyadi, bu esa, uning keyingi faoliyati rivoji uchun ijobiy turtki bo'ladi. Ya'ni faollik ijtimoiy hodisa sifatida inson va jamiyat hayotida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Bugungi kuni, taqdiri va istiqboliga befarq bo'lmagan har bir inson jinsi, millati, dini, jamiyatda tutgan ijtimoiy mavqeyidan qat'iy nazar o'zgarish va yangiliklarga moslashuvchan hamda faol bo'lishi zamonaviy jamiyat talabidir.

### ASOSIY QISM

Tadqiqotning samarali natijasi mavzuni, uning obyekti, predmeti, maqsad va vazifalari, shuningdek, tadqiqot metodologiyasini aniq va puxta beligilanib olinishiga bog'liq. Avvalo, biz tadqiqot obyekti sifatida jamiyatda xotin-qizlarning siyosiy ongi, savodxonligi, siyosiy madaniyatini tahlil etar ekanmiz, maqsadimiz mamlakat taraqqiyotining yangi bosqichida ayollar siyosiy faolligini oshirishga xizmat qiladigan davlat boshqaruvidagi mavjud institusionallashuv mexanizmlarini takomillashtirishdan iboratdir. Mavzuni tadqiqi davomida Yangi O'zbekistonda ayollarning ijtimoiy-siyosiy faolligi, davlat va jamiyat boshqaruvidagi ishtirokini faollashtirishning zamonaviy tendensiyalariga alohida e'tibor qaratildi. Shu bilan birga, mamlakatimizda ayollar siyosiy faolligini oshirishga oid mexanizmlar, qonuniyatlar, strategik tamoyillar va konsepsiyalar o'rganildi. Tadqiqotning usullari sifatida tadqiqot jarayonida qiyosiy-tarixiy, tizimli-funksional, anketali so'rovnoma, ekspert so'rovi, intervyu usullari qo'llanilgan.

Mamlakatimizda xotin-qizlarning intellektual salohiyati va tashabbuskorligini, davlat va jamiyat ishlarida faolligini qo'llab-quvvatlashga oid g'oya va fikrlar O'zbekiston Respublikasining Prezidenti SH.M.Mirziyoyevning asarlari va ma'ruzalarida o'z ifodasini topgan. Xususan, davlat rahbarini tomonidan O'zbekistonda xotin-qizlarning faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlash, jamiyatdagi o'rnini mustahkamlashga oid ilgari surilgan fikr-mulohazalar bugungi davrning ijtimoiy-siyosiy manzarasida yangicha dunyoqarash va mazmun kasb etmoqda.

Bugungi kunga qadar xotin-qizlar tadqiqot obyekti sifatida ijtimoiy fanlarning turli sohalarida o'rganib kelingan. Ayniqsa, xorij mamlakatlarida, mintaqa va o'zbek jamiyatida xotin-qizlar siyosiy faolligining ilmiy asoslariga bag'ishlangan ko'plab tadqiqot ishlari mavjud. Mazkur yo'nalishdagi O'zbekistonda ayollarning davlat va jamiyat boshqaruvidagi ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirishning turli jihatlar borasida – E.Sultonova, R.Samarov, A.Xuseynova,

T.Narbayeva, X.Kenjayevar tomonidan salmoqli tadqiqotlar yaratildi. Jamiyatda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini kengaytirish, gender tenglik, ayollarning ijtimoiy maqomini oshirish masalalari bo'yicha G.Matkarimova, D.Alimjonova, N.Niyazova, G.Raximova, G.O'razaliyeva, M.Inagamovalar tadqiqotlar olib borishgan. Shuningdek, ayollarning davlat boshqaruvi, siyosiy jarayonlardagi ishtiroki, siyosiy lider ayol imiji, xotin-qizlar siyosiy faolligini oshirishda gender tenglik tamoyillari ta'minlanishining ahamiyati rossiyalik olimlar – S.Ayvazova, A.Legetskeya, E.Ponujdayev, D.Xalilova, V.Safonov, YE.Miryashevalarning tadqiqotlarida izohlangan.

Faollik ehtiyoj, motivatsiya, manfaat va harakat uyg'unligida amalga oshirilib, o'zini anglagan, har bir harakatini muvofiqlashtiruvchi shaxsga xos muhim xususiyat hisoblanadi. Z.R.Qodirova ijtimoiy faollikni ijtimoiy jarayonlarda ongli tarzda ishtirok etishga intilish [1, 10] deb ta'kidlasa, A.G.Kovalyov ijtimoiy faollikni yon-atrofida, o'zi ishlayotgan jamoada, umuman olganda, butun dunyoda sodir bo'layotgan voqea-hodisalarga qiziqish holati [4, 575-577], deya e'tirof etadi. Bizning fikrimizcha, ijtimoiy faollik – shaxsning ijtimoiy ahamiyatli, hamjamiyat manfaatlariga javob beradigan tashabbuskorlik faoliyatidir. Ijtimoiy faollik shaxsning jamiyat va jamoadagi faoliyatida namoyon bo'lib, u orqali insonning hayotiy pozitsiyasi, o'zini shaxs sifatida namoyon etish istagi natijasida sotsial-madaniy qiyofasi shakllanadi.

Faollik kategoriyasini siyosat sub'ektining muhim xususiyati sifatida siyosiy jarayonlarni o'z ehtiyojlari, qarashlari va maqsadlariga muvofiq ravishda o'zgartirish qobiliyati [5, 17-20] sifatida talqin qilish mumkin. Boshqacha aytganda, faollik sub'ekt faoliyatining samaradorligini ta'minlaydi. Siyosiy faoliyat boshqa faoliyat turlari singari o'z fenomenal kategoriyasi negizida turli yo'nalishlarga ega. Jumladan, siyosiy faollik konstruktiv ya'ni muloqotga kirishish, hamkorlik aloqalarini o'rnatishga tayyorlik [7, 99] va aksincha, destruktiv, ya'ni buzg'unchilik, huquqbuzarlikka asoslangan, ijtimoiy xavfli va tajovuzkor hatti-harakatlar [6, 47] sifatida ham namoyon bo'lishi mumkin. Mazkur siyosiy faollik ko'rinishlari mavjud siyosiy boshqaruv tizimi va siyosiy jarayonlarga u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatadi. Boshqacha aytganda, jamiyat rivojiga yoinki tanazzuliga sabab bo'lishi mumkin.

Fikrlar xilma-xilligi, jumladan, ilmiy tafakkur plyuralizmi sharoitida siyosiy faollikni izohlash bo'yicha turli ilmiy-nazariy qarashlar tizimi vujudga kelgan. Siyosiy faollik, rus olimi V.L. Bogadjiyev ta'rifiga ko'ra, individ yoki siyosiy guruhning mavjud siyosiy yoki iqtisodiy tartibni, tegishli institutlar faoliyatini o'zgartirish istagidir [11]. Siyosiy faollikka yangicha nazariy qarashlar, jahon siyosatshunosligida mavjud mezonlar asosida tahliliy-talqiniy yondashuv A.Yu. Melvilning «Siyosatshunoslik» qo'llanmasida ko'zga tashlanadi. Olim siyosiy faoliyat – aniq bir maqsad va natijaga erishish yo'lida muayyan siyosiy rol(yoki rollar)ni amalga oshirish [2, 380],

deya tushuntiradi. Yuqoridagi ta'riflarga asoslangan holda, siyosiy faollik – sub'ektning siyosiy maqsadlarga erishishga yo'naltirilgan harakatlar majmui, degan mulohazani ilgari suramiz.

Siyosiy faollik, siyosiy ishtirok va siyosiy faoliyat tushunchalari mazmunan bir-biriga yaqin bo'lsa-da, quyidagi jadvalda (1-jadval) bir-biridan farqli jihatlari ajratilgan:

*1-jadval*

<b>Siyosiy faollik</b>	<b>Siyosiy ishtirok</b>	<b>Siyosiy faoliyat</b>
Mavjud siyosiy tartibni o'zgartirish istagi bilan bog'liq faoliyat shakli	Siyosiy qarorlarni shakllantirish yoki qabul qilish, davlat siyosatini amalga oshirish maqsadida individual yoki guruh asosidagi mahalliy, milliy, mintaqaviy harakatlar [8, 4]	Ijtimoiy-siyosiy voqelik bilan aloqada bo'lish jarayoni bo'lib, bunda shaxsning siyosiy maqsadiga erishish yo'lidagi harakati [9, 161-163]
Saylov va referendumlarda ishtirok etish va ovoz berish	Saylovda nomzod yoki targ'ibotchi sifatida ishtirok etish	Partiyada yetakchilik va professionallik
Siyosiy hayotda faollik politizatsiya[10, 92] (va aksincha, siyosatdan uzoqlashish depolitizatsiya) [12, 52] deb nomlanadi	Mamlakat ichki va tashki siyosiy munosabatlarida ishtirok, siyosiy hokimiyatga individual yoki guruh shaklida ta'sir qilish	Mavjud siyosiy aloqalarni o'zgartirish yoki boricha saqlab qolishga qaratilgan faoliyat shakli

Siyosiy faollik shakllari quyidagicha tasniflanadi:

- 1) davlat boshqaruvida bevosita va bilvosita ishtirok etish, referendum va mahalliy saylov jarayonlarida ishtirok etish;
- 2) NNT va jamoat tashkilotlari faoliyatini qo'llab-quvvatlash;
- 3) mamlakat, mintaqa, shahar hayotidagi voqealar yuzasidan murojaat, petitsiyalarni imzolash;
- 4) siyosiy partiyalar, harakatlar, jamiyatlar, kasaba uyushmasi singari tashkilotlar faoliyatida ishtirok etish;
- 5) mamlakat, viloyat, qishloq hayotidagi miting, namoyishlar, piketlarda qatnashish;
- 6) fuqarolik jamiyati institutlari faoliyatini rivojlantirishda ishtirok etish.

Har bir mamlakatning demokratik boshqaruv va faol bozor iqtisodiyotiga o'tishidagi asosiy maqsadlaridan biri – bu, albatta, fuqarolariga o'zlari barpo qilayotgan jamiyat hayotida ishtirok etish va mavjud imkoniyatlardan bahramand bo'lishlarini ta'minlashdan iborat. 2019 yil 21 iyunda Prezident Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis Senatining yigirmanchi yalpi majlisidagi nutqida: «Shu o'rinda meni ongimizda chuqur ildiz otgan bir aqida ko'p o'ylantiradi. Biz doimo ayol – bu ona, oilamiz bekasi, deb ularni ulug'laymiz. Bu to'g'ri, albatta. Ammo hozirgi kunda har bir xotin-qiz demokratik jarayonlarning kuzatuvchisi emas, balki faol va tashabbuskor ishtirokchisi bo'lmog'i shart» [13] ekanligi tadqiqotimiz asosini tashkil etadi.

Agar xalqaro tajribaga yuzlanadigan bo'lsak, qonunchilik palatasi tarkibida jamiyatning barcha qatlam vakillarining ishtiroki ijobiy natijalarga olib kelishini Daniya, Islandiya, Norvegiya, Finlyandiya va Shvetsiya singari Shimoliy Yevropa mamlakatlari misolida ko'rish mumkin. Mazkur mamlakatlarda siyosatda ishtiroki bo'yicha, jumladan, vakillik organlari, hukumat, mintaqaviy ma'muriyatlarda ayollar ulushi boshqa mamlakatlarga qaraganda oldinda turadi.

O'zbekiston milliy taraqqiyotining yangi bosqichida davlat boshqaruvida xotin-qizlar ulushini oshirish, rahbarlik lavozimiga ayol nomzodlarni ko'rsatish, siyosiy partiyalarda ayollar ulushini ko'paytirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Erkak va ayol rahbarlarning shaxsiy sifatleri, boshqaruvchilik imkoniyatlari, rahbar avtoritetining boshqaruv samaradorligiga ko'rsatadigan ta'siri masalalariga alohida e'tibor qaratadigan bo'lsak, ikki jins vakillari orasidagi rahbarlar shaxsida ayrim psixologik farqlar mavjud bo'lib, mazkur tafovutlar oxir-oqibatda boshqaruv samaradorligiga o'z ta'sirini ko'rsatmasdan qolmaydi.

Ayollar siyosiy faolligining davlat va jamiyat ijtimoiy-siyosiy hayotidagi ahamiyatini quyidagicha tasnifladik (2-jadval):

2-jadval

<b>Davlat siyosatiga ta'siri</b>	<b>Siyosiy partiya ta'siri</b>	<b>Siyosiy faol ayollarga ta'siri</b>	<b>Jamiyatga ta'siri</b>
Ayollar va erkaklar teng huquq va imkoniyatlari ta'minlanadi	Partiyaning imiji va obro'yi oshishiga olib keladi	Davlat hokimiyati organlarida ayollar salmog'i oshadi	Saylovlarda teng miqdordagi vakillik tizimi shakllanadi
Siyosatda ayol va erkaklarning teng vakillikka ega bo'lishi demokratiyaning zarur shartiga aylanadi	Partiyaning dasturida vazifalar kengayadi va yaxshilanadi	Siyosiy faol ayollar o'rtasida bir-birini qo'llab-quvvatlash, hamkorlik qilishga imkoniyat yaratiladi	Davlat va jamiyatni rivojlantirish dasturlarida gender xususiyatlari e'tiborga olinadi
Parlament faoliyatining qonuniylik va adolatlilik tamoyiliga asoslanishi	Partiya nizomi, hujjatlari, saylov strategiyalari va tashviqotlarini moliyaviy rag'batlantirilishi	Ayollarning imkoniyatlariga va o'z-o'ziga ishonchini oshishiga xizmat qiladi	Gender tengligi borasidagi jamoatchilik fikrining ijobiy tomonga o'zgarishiga xizmat qiladi
Gender tengligi ta'minlanishi iqtisodiy taraqqiyotga xizmat qiladi	Partiyalar o'rtasida sog'lom raqobatni ta'minlaydi		

## XULOSA

Demak, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligi jamiyat taraqqiyotidagi muhim omil bo'lib, biz uning ahamiyatini nimalarda ko'rishimiz mumkin:

*Birinchi*dan, mamlakat aholisining taxminan yarmini, ya'ni 49,6% foizini ayollar tashkil etadi. Demokratik jamiyat tamoyillariga ko'ra, mamlakat fuqarolari davlat boshqaruvida bevosita



va bilvosita ishtirok etish huquqiga ega. Ayniqsa, erkaklar va ayollarning siyosiy-huquqiy tengligi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari sifatida mamlakat hayotini ijobiy tomonga o'zgartiradi. Davlat va nodavlat tashkilotlarining barcha darajalari (bo'g'inlari)da gender nomutanosibligining bartaraf etilishi jamiyat boshqaruvining oqilona mexanizmini yaratishga zamin yaratadi.

*Ikkinchidan*, davlat boshqaruv organlarida ayollar sonining kamligi, asosan, ta'lim, sog'liqni saqlash, savdo, uy-joy kommunal xo'jaligi, xizmat ko'rsatishda band bo'lgan xotin-qizlar manfaatlarining yetarli darajada ta'minlanmasligiga, manfaatlar muvozanatining buzilishiga olib keladi. Bu holatning oldini olish davlat boshqaruvida hamda qarorlar qabul qilinishida ayollar ishtirokini ta'minlash zarurati bilan belgilanadi.

*Uchinchidan*, ayollarning siyosiy faolligi ularning iqtisodiy imkoniyatlari va moliyaviy resurslarga egaligi bilan ham uzviy bog'liq. Xotin-qizlarning moliyaviy mustaqilligi bevosita teng huquq va imkoniyatlar asosida saylovlarda o'z nomzodini ko'rsatish, ishtirok etish, saylash va saylanish imkonini beradi. Bu murakkab va mashaqqatli yo'l bo'lib, kutilgan natijalarga erishish qator islohotlar hamda vaqt talab etadi. Ayollar siyosiy faolligi mavzusida tadqiqot olib borgan G.F.Belyayeva Shvetsiyada ijtimoiy konsolidatsiyaga (ya'ni umumiy maqsadlar sari kurashishda shaxslar, guruhlar, tashkilotlarning uyushishi) [3, 32] va muhim siyosiy natijalarga erishish uchun gender tengligi to'g'risidagi qonun qabul qilinganidan keyin ham 20 yildan ko'proq vaqt talab etilganligini ta'kidlaydi.

*To'rtinchidan*, davlat boshqaruvida ayollar rolining oshishi mamlakatda xotin-qizlar huquqlari buzilishi bilan bog'liq muammolarning kamayishiga olib keladi. Boshqacha aytganda, davlat boshqaruvida ayollar vakolatining oshishi qonunchilikning gender omillarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishiga, ayollar vakilligining kengayib borishi ularning manfaatlarini himoya qilinishiga sabab bo'ladi.

Xotin-qizlar qatlamini davlat boshqaruvidagi yetakchi bo'g'inga aylantirish tadqiqotimiz asosini tashkil etar ekan, ayollarning jamiyatdagi rolini oshirishda nimalarga e'tibor berish lozimligini ilmiy asoslash maqsadga muvofiqdir. Davlat boshqaruvida ayollar ishtiroki ijobiy natijalarga olib kelar ekan, siyosatchi ayollar miqdorini oshirishda nimalarga ahamiyat berish lozim. Buning uchun, avvalambor, ayollarga nisbatan zo'ravonlik, tazyiq, diskriminatsiya va gender tengsizligini bartaraf etish talab etiladi. Qonuniy kafolatlarning mukammal ishlab chiqilishi yuqorida sanab o'tilgan muammolarni kamayishiga sabab bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Кадырова З. Проблемы повышения социальной активности молодежи Узбекистана в условиях всестороннего реформирования общества. –Т.: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 1999. –С. 10.

2. Мельвиль А.Ю. [и др.]; Политология. Учебник. –М.: Изд-во Проспект, 2004. –С. 380.
3. Абдрашев А.Б., Эшиев А.К. Политико-терминологический словарь. –Жалал-Абад, 2012. –С. 32. Электрон ресурс: <https://politike.ru/slovari/politiko-terminologicheskii-slovar.html>.
4. Каргаполова Ю. В. Теоретический анализ основных подходов к определению понятия «социальная активность» Молодой ученый. –М., 2014. № 21 (80). –С. 575-577. Электрон ресурс: <https://moluch.ru/archive/80/13979/>.
5. Мукашева Р.М. Перспективы развития политической лингвистики в Кыргызстане. ФГБОУ ВО Московский государственный лингвистический университет. Вестник Бишкекского гуманитарного университета. –М., 2017. №1(39). –С. 17-20.
6. Бутусова Н.В. Конструктивное политическое участие и повышение эффективности публичной власти в России. Вестник Поволжского института управления//Политические науки. Том 18. №5. –М., 2018. –С. 47. Электрон ресурс: [file:///C:/Users/fpb/Downloads/konstruktivnoe-politicheskoe-uchastie-i-povyshenie-effektivnosti-publichnoy-vlasti-v-rossii%20\(2\).pdf](file:///C:/Users/fpb/Downloads/konstruktivnoe-politicheskoe-uchastie-i-povyshenie-effektivnosti-publichnoy-vlasti-v-rossii%20(2).pdf)
7. Логинова Л.В., Щепланова В.В. Деструктивная гражданская активность молодежи: теоретико-методологическая концептуализация. Logos et Praxis. 2019. Vol. 18. № 2. –С. 99. Электрон ресурс: <file:///C:/Users/fpb/Downloads/destruktivnaya-grazhdanskaya-aktivnost-molodezhi-teoretiko-metodologicheskaya-kontseptualizatsiya.pdf>
8. Игнатова Т.В. Политическая активность как основная форма политического участия российской молодежи. Известия Тульского государственного университета. Гуманитарные науки//Социологические науки. –М., 2016. –С. 4. Электрон ресурс: [file:///C:/Users/fpb/Downloads/politicheskaya-aktivnost-kak-osnovnaya-forma-politicheskogo-uchastiya-rossiyskoy-molodezhi%20\(2\).pdf](file:///C:/Users/fpb/Downloads/politicheskaya-aktivnost-kak-osnovnaya-forma-politicheskogo-uchastiya-rossiyskoy-molodezhi%20(2).pdf)
9. Бозаджиев В.Л. Политическая деятельность как предмет политической психологии. Международный журнал экспериментального образования//Психологические науки. №7. 2015. –С. 161-163. Электрон ресурс: <https://expeducation.ru/ru/article/view?id=7779>
10. Данилов М.В. Концепт «Политизация» в научном и общественно-политическом дискурсе. Известия Саратовского университета. 2010. Т.10. Сер. Социология. Политология, вып. 2. –С. 92. Электрон ресурс: <file:///C:/Users/fpb/Downloads/kontsept-politizatsiya-v-nauchnom-i-obshchestvenno-politicheskom-diskurse.pdf>



11. Бозаджиев В.Л. Политическая психология. Научная электронная библиотека. Монографии, изданные в издательстве Российской Академии. – М., 2015. Электрон ресурс: <https://monographies.ru/ru/book/section?id=8240>.

12. Патрушев С.В., Филиппова Л.Е. Конституирование современной политике в России: институциональные проблемы. Монография. –М.: Политическая энциклопедия, 2018. –С. 52. Электрон ресурс: [https://elibrary.ru/download/elibrary\\_36687920\\_12493569.pdf](https://elibrary.ru/download/elibrary_36687920_12493569.pdf).

13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning Oliy Majlis Senatining yigirmanchi yalpi majlisidagi nutqi (21.06.2019). O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy sayti: <https://president.uz/uz/lists/view/2692>